

Isomiddinova Nargiza Husniddn qizi

Buxoro Davlat Universiteti

Tarix va yuridik fakulteti

Buxoro tarixi yo'nalishi IV bosqich talabasi

nargizaisomiddinova4@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrlarda Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasining davlat tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma'muriy bo'linishi, shuningdek mansab va amallar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ashtarxon, devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi, mulki xurri xolis, , Subxonqulixon, Ubaydullaxon, siyosiy tarqoqlik

Abstract: In the article, the state system, socio-economic life, administrative division, as well as careers and actions of the Ashtarkhanid dynasty, which ruled the Bukhara khanate in the middle ages, are briefly discussed.

Key words: Ashtarkhan, devanbegi, parvanachi, mushrif, treasurer, independent property, Subkhanqulikhan, Ubaidullah Khan, political disunity

Аннотация: В статье кратко рассматриваются государственное устройство, социально-экономическая жизнь, административное деление, а также карьеры и действия династии Аштарханидов, правивших Бухарским ханством в средние века.

Ключевые слова: Аштархан, деванбеги, парваначи, мушириф, казначей, самостоятельная собственность, Субханкулихан, Убайдулла-хан, политическая разобщенность.

Kirish. Vatanimiz tarixini o'rganar ekanmiz albatta unda o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlar va sulolalar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim. Shu o'rinda O'rta asrlarda o'lkamizda turli mamlakatlar va sulolalar mavjud bo'lgan. Ulardan biri Buxoro xonligidagi Ashtarxoniyalar sulolasidir. Bu sulola 1601-1756-yillarda hukmronlik qilgan. 1598-yilda Abdullaxon vafot etgach, shayboniyalar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlanib, bu kurash oxir-oqibat mazkur sulolaning butunlay qirilib ketishiga olib keldi. Ashtarxoniyalar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon (Hoj Tarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556-yilda Astraxanni Rossiya bosib olgach, Ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) hurmat bilan kutib oladi. Iskandarxon qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga beradi. Jonibek Sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'radi. Jonibek Sulton va uning o'g'llari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar. 1601-yilda Jonibek Sultonning o'g'li Boqi Muhammad Buxoro

taxtiga o'tqaziladi. Buxoro xonligi tarixida yangi sulola-ashtarxoniyalar sulolasini hukmronligi boshlanib, 175 yil davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqariladi.

Muhokama. Ashtarxoniyalar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniyalar davridagidan deyarli farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliv hokimiyat boshlig'i Xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniyalar davrida amalda bo'lgan lavozimlar saqlanib qolgan Ashtarxoniyalar davrida saroy qutlovi davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan. Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo'linib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Harbiy sohada doimiy qudratli harbiy qo'shin, markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi, qo'shining zamonaviy qurolyarog'lar, zambaraklar bilan ta'minlanmaganligi Buxoro xonk'gining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib keldi. Ashtarxoniyalar davrida yerga egalik qilishning, ilgarigi asrlarda amalda bo'lganidek mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mayjud edi. Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan xiroj solig'i to'laganlar. Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga suyurg'ol shaklida, harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga tanho shaklida in'om qilardi. Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lamas edi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmay, o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular „Mulki xurri xolis” deb atalardi. Xususiy mulkchilik tobora kuchayib bordi. Xon tomonidan davlat yerlarini soliqqa tortmaslik sharti bilan yirik boylar va saroy amaldorlariga sotish hollari ham yuz berdi. Xususiy mulk egalari u yerlarda o'zlarini ishlasmas edi, yersiz dehqonlarga ijara berib, ularni zo'ravonlik bilan ishlatib, katta daromad olardilar. Diniy mahkamalarga mulki sultoniy hisobidan berilgan u yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmas edi. Ko'chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Natijada Qo'ng'iroq, Mang'it, Nayman, Do'rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi.

Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Buxoro xonligidagi yerga egalik qilishning bunday tartibi oqibatda:

- qishloq xo'jaligidan tushadigan daromadlarning alohida shaxslar qo'lida to'planib borishiga;
- xon xazinasiga tushadigan daromadlarning kamayib, davlatning kuchsizlanishiga;
- yerda ter to'kib ishlovchi, mahsulot yetishtiruvchi mehnatkash aholi moddiy ahvolining og'irlashuviga olib keldi.

Tinimsiz urushlar, qabila boshliqlari va amirlar o'rtasidagi ichki kurashlar mamlakat iqtisodiy hayotini, aholining moddiy turmushini ayanchli ahvolga tushirdi. Sug'oriladigan

yerlarda bug'doy, apha, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, savzavot va poliz ekinlari ekilgan. Dasht va tog'oldi lalmi yerlarda ham boshoqli ekinlar, kunjut, tarvuz, qovun ekilib, dehqonchilik qilingan.

Dehqonchilik mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, 1614 - 1615- yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan. 1633 - 1634- yillarda Qo'shxo'r'g'onda kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq ashtarkoniylar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi. Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan. Mehnatkash aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Ammo katta yaylovlari xon, saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlariga tegishli bo'lib, ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqildi. Jun, ten va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirilar, ichki va tashqi bozorda sotilar edi. Ho'kizlardan yer haydashda, omoch va mola tortishda keng foydalanilar edi. Hunarmandchilik mahsulotlari asosan shaharlarda, qisman yirik qishloqlarda yetishtirilar edi. Hunarmandchilikning to'qimachilik tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik ancha rivojlandi. Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi. Olkada sog' tuproq manbalarining ko'pligi sopol va chinni idishlar, ko'za, kosa va boshqa tayyor kulolchilik mahsulotlari tayyorlashga imkoniyat berardi. Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida yog'och va ganch o'ymakorligi kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi. Buxoro va Samarqandda yuqori sifatli yozuv qog'ozni ishlab chiqarish, tog'li hududlardan nodir metallar, kaliy qazib olish ham yo'lga qo'yilgan. Buxorolik hunarmandlar 200 ga yaqin kasb turlari bilan shug'ullangan. XVII - XVIII asrlarning birinchi yarmida savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarning mavqeyi baland edi. Ichki savdoda dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlariga, hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj kattaligi sababli bozorlar gavjum bo'lardi. Tashqi savdo ham to'xtab qolmadi. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qashg'ar, Turkiya mamlakatlariga paxta, teri, jun, turli matolar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqarilar edi. Buxorolik savdogarlarning Sibir shaharlarida o'z savdo rastalari bo'lgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, dori-darmon, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan. Ashtarkoniylar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli soliq deb hisoblangan. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko'paytirilgan. Asosiy soliq to'lovchi raiyat-dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar bo'lib, ulardan xiroj, zakot, ixrojot, boj va boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi. Urush yillarida soliq miqdori haddan tashqari oshirilardi. Subhonqulixon davrida raiyatdan 7 yillik soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan. Ubaydullaxon esa aholidan yig'iladigan soliqlar miqdorini 4 baravarga ko'paytirgan. Ubaydullaxon 1708- yilda pul islohoti o'tkazib, tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tangalar o'rниga, tarkibida 9 foiz kumush bo'lgan tangalarni zarb ettiradi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi. Natijada pulning qadri 4 baravar kamayadi, norozilik kuchayib, do'kondor va hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotmay

qo'yadi, do'konlar yopiladi, savdo-sotiq ishlariga katta zarar yetadi. Muhammad Amin Buxoriyning „Ubaydullanoma” asarida „Oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar”, deb yozilgan edi. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq 1708-yilda Buxoroda qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar xon saroyiga yaqinlashib, saroyni o'rab oladilar. Ark darvozasiga tosh yog'dirib, xonni haqoratli so'zlar bilan badnom qiladilar. Qo'zg'olon bostiriladi, yangi tangalar qimmati ikki baravarga tushirilib, do'konlar qayta ochiladi. 1712-yilda Samarqandda qo'zg'olon ko'tarilib, xalqqa zulm va zo'ravonlik qilayotgan kenagas qabilasidan qo'yilgan Sulton To'qsabo shahardan haydaladi. XVIII asrda Balx, Karmana, Miyonqol, Shahrisabz va boshqa viloyatlarda ham xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Biroq qo'zg'olon tartibsiz, tarqoq holda bo'lganligi uchun tezda bostiriladi. Xalq qo'zg'olonlari Buxoro xonligi siyosiy tartiblarining istiqboli yo'qligini yaqqol ko'rsatdi va uni yanada zaiflashtirdi. Ashtarxoniyalar davrida avj olgan ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar, siyosiyparokandalik ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotga salbiy ta'sir etdi. Biroq bunday murakkab siyosiy vaziyat maorif, ilmfan, madaniyat rivojini to'xtatib qololmadi. Ashtarxoniyarning hukmronligi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi, ko'plab o'zaro urushlar, shaharlarning huvillab qolishi, ko'pdan-ko'p soliqlar natijasida o'troq aholining xonavayron bo'lishi, vohalar va savdo karvonlarining talon-toroj qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda yer-mulkka nisbatan soliqlar nihoyatda oshib ketdi. Soliqlar hatto bir necha yil oldin va ko'proq undirib olinadigan bo'ldi. Masalan, Subxonqulixon davrida soliqlar yetti hissa ortiq olindi. Soliqlar «moli jihat» va «xiroj» deb atalardi. Bu davrda shayboniyalar davridagidek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning mavqeyida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lib, bu ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda Jo'ybor xo'jalarining avlodlari bo'lgan ulamolar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi yanada oshdi. Asosiy soliq to'lovchi bo'lgan ijtimoiy tabaqa - raiyatning ahvoli og'irlashib bordi. Bu davrda ijtimoiy pillapoyaning eng pastida turgan qullarning, ayniqsa, saroy xizmatchi qullarining mavqeyi oshishi uchun imkoniyatlar kengaydi. Xonga va boshqa yirik saroy amaldorlariga tegishli bo'lgan qullar, ba'zi hollarda o'z salohiyati bilan saroydag'i yirik amaldorlar qatoridan o'r'in olishga ham muvaffaq bo'lgan. Ko'pgina xonlarning shaxsiy qo'riqchilari qullardan iborat bo'lib, bu ularning saroydag'i mavqeyini oshirib turardi. Ashtarxoniyalar davlat tuzumi o'z tuzilishi, mohiyatiga ko'ra Shayboniyalar davlat tuzumidan deyarli farq qilmas edi. Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyorli bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinar, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi xutbada qo'shib o'qitildi. Lekin amalda ko'pgina ashtarxoniy hukmdorlar yirik saroy amaldorlari qo'lida o'yinchoq bo'lib, markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bois, joylarda mahalliy hokimiyat tamomila viloyat hokimlari ixtiyorida edi. Bu markaziy boshqaruvning zaifligi oqibati bo'lib, davlat tizimini beqarorligiga, ijtimoiy-siyosiy inqirozlarga olib kelar edi. Ashtarxoniyalar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqarar edi. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib - markaziy va mahalliy

boshqaruv tizimiga ega edi. Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo'lida bo'lib, ashtarkoniylar davrida otaliq mansabiga ega shaxs ayniqsa katta mavqega ega bo'la boshladi. Otaliq birinchi vazir vazifasini bajargan. XVIII asrda esa u yana mamlakatda sug'orish ishlariga rahbarlik ham qilgan. Otaliqdan keyin devonbegi (moliya vaziri), undan keyin, parvonachi (arizalarni qabul qiluvchi), ko'kaldosh, mirshabboshi bo'lgan. Bundan tashqari inoq (qudratli o'zbek qabilalarining amirlaridan tayinlangan), qushbegi (xon qarorgohining boshlig'i), katta mextar, dasturxonchi, to'pchiboshi, qutlov, eshik og'asi, miroxo'r, shayxulislom, qozi, qozikalon va hokazolar bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda islom dini davlatning asosiy tayanchi bo'lib, ruhoniylar juda katta siyosiy mavqega ega edi. Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turish, xon farmoniga ko'ra harbiy yurishlarda o'z qo'shnlari bilan qatnashishdan iborat edi, xolos. Viloyat hokimlari ham o'z boshqaruv tizimiga, harbiy kuchlariga ega edi. Ashtarkoniylar davrida harbiy va ma'muriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari - xo'jalar va diniy mansab egalari - shayxulislom, qozikalon, sadr va boshqalarning ahamiyati ham katta bo'lgan. Davlat boshqaruvida Jo'ybor xo'jalarining mavqeyi bu davrda ham yuqori bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlanar edi. Qo'shin tuzilishi, jang olib borish uslubida shayboniylar davriga xos harbiy tartib-qoidalar saqlanib qolindi. Lekin o'z samaradorligini tobora yo'qotib borayotgan bu o'rta asr harbiy jang tartiblarini ham ashtarkoniylar qo'shini yetarli o'zlashtira olmaganligini ko'ramiz. Mamlakatdagi ichki nizolarga, separativ kuchlarga, tashqi dushmanlar hujumiga to'siq qo'ya oladigan doimiy qudratli harbiy qo'shning barpo etilmaganligi, qo'shin tarkibiga urushlar paytida oddiy fuqarolarning keng jalb etilishi, uyushgan markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi va boshqa siyosiy-iqtisodiy sabablar tufayli ashtarkoniylar davrida Buxoro xonligi harbiy jihatdan o'ta zaiflashib ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. Birinchi kitob. Fors tilidan S. Mirzaev tarjimas, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izohlar muallifi B. Ahmedov. - T.: Sharq, 1999.
2. Ahmedov.B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent, 2001 yil
3. Muhammad Haydar. Mirzo. Tarixi Rashidiy. - T.: Sharq, 2010.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. - T.: Sharq, 2000.
5. Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. - Toshkent: Akademiya, 2006.
6. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. - T.; Yangi asr avlod, 2012.
7. Amir Said Olimxon Buxoro xonligining hasrati tarixi. T. Fan, 1991.B.25
8. Axmedov B. Ashtarkoniylar, Istorija Balxa, T., 1982;